

19-mavzu: [d] tovushi. Dd harfi

Dars maqsadi:

- [d] tovushining talaffuzi va Dd harfining bosma shakli bilan tanishadilar ;
- [d] undosh tovush ekanligini bilib onladilar.
- so'zlardan [d] tovushining o'rnini aniqlashni o'rganadilar;
- so'zni bo'g'inga bo'lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

Tayanch so'zlar: matn, maqol, [d] tovushi

Didaktik materiallar: ko'k va qizil rangli kichik kvadratlar, rasmlli kartochkalar,

Darsning borishi:

I.Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Izquvar mashqi: O'qituvchi doskaga olma, lola, limon, ilon, nina rasmini qo'yadi yoniga esa so'zлari yozilgan kartochkalar qo'yadi. O'quvchilar esa rasmlarni o'zi ifodalagan so'zlar bilan birlashtirish so'raladi.

- Bugun siz bilan "Izquvar" mashqini o'tkazamiz. Doskadagi rasmlarga qarang, ularni ifodalovchi so'zlarni topib birlashtiring.

Asosiy qism (40 daqiqa)

3. Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)

O'qituvchi doskaga dala, do'ppi, deraza rasmini qo'yadi. O'quvchilardan bu so'zlarni bir xil jixatlarini aniqlashni so'raydi.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

- Rasmda nimalar tasvirlangan?
- Ularni qanday bir xil xususiyatlari bog'lab turadi?

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi

2.Mavzuni tushuntirish: (10 daqiqa)

O'qituvchi [d] tovushini qanday hosil bo'lishini tushuntiradi. Undosh tovush talaffuzda to'siqqa uchrab, qisqa aytilishi unli bilan birga bo'g'in hosil qilishi haqida tushuncha beradi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.

O'qituvchi uchun eslatma:

D lablar biroz ochiq, harakatsiz, tinch holatda bo'ladi, tishlar bir-biriga yaqinlashgan, lekin jiplashmagan, "D" tovushi unli "a", "i", "o", "u" tovushlari bilan qo'shib talaffuz etilganda tilning oldingi kurak qismi yuqorigi tishlarga tiralib turadi.

Darslikdan Dd harfining bosma ko‘rinishi bilan tanishtiriladi. Darslikda berilgan she’r o‘qib beriladi va muhokama qilinadi.

Dengiz-u daryodaman,
Davlatda, dunyodaman.
Deyman: “Shirinso‘z bo‘ling!
Doim ahil do‘st bo‘ling”.

- *She’r nima haqida?*
- *Unda qaysi so‘zlarda [d] tovushi ishtirok etadi?*
- *Siz yana qanday [d] tovushi bilan qatnashgan so‘zlarni bilasiz?*

O‘qituvchi doskada o‘quvchilarga bo‘g‘inlarni qo‘shib so‘z hosil qilib o‘qish tartibini darslikdagি topshiriq orqali tushuntiradi.

Darslik bilan ishlash: (15 daqqa)

Darslikda berilgan bo‘g‘in va so‘zlar o‘quvchilarga navbat bilan o‘qitiladi. Berilgan gaplar rasmlarni ifodalovchi so‘zlar bilan to‘ldirilib o‘qliladi. Matn nima ekanligini tushuntiriladi. Matn sarlavhasi nimani bildirishi aytildi. Tavsiya etiladigan matn, *Dalada bug‘doy pishdi. Bug‘doy kombaynda o‘riladi. Otam daladan bug‘doy o‘rib oladi. Bug‘doy donidan un qilinadi. Undan non tayyorlanadi. Non dasturxonimiz ko‘rki.*

O‘qituvchi uchun eslatma:

Matn bu bir necha o‘zaro bog‘langan gaplardan tuziladi. Matnga sarlavha qo‘yish mumkin.

Daftar bilan ishlash: (10 daqqa)

1. Dd harfini tegishli rangga bo‘yang. Nima uchun bu rangni tanlaganingizni izohlang.
2. Dazmol so‘zining chizmasida [d] tovushining o‘rnini aniqlang va tegishli kataknini bo‘yang.
3. Berilgan namunadan bosma Dd harfining bosh va kichik ko‘rinishini avval nuqtalar ustidan so‘ng o‘zları yozing.
4. So‘zlarni nuqtalar ustidan so‘ng mustaqil yozing.
5. D tovushining o‘rnini topib, bo‘yang.

Darsga yakun yasash:

-Qanday tovush bilan tanishdingiz?

19-dars **[d] tovushi. Dd harfi**

Dengiz-u daryodaman,
Davlatda, dunyodaman.
Deyman: “Shirinso‘z bo‘ling!
Doim ahil do‘st bo‘ling”.

[d] tovushi – undosh tovush.
Til tanglayga ko‘tariladi. To‘siqqa uchrangan havo shovqin bilan talaffuz qilinadi.

d	a	o	i	u
d	da	do	di	du
d	ado	o-dam	da-da	Da-min
d	don	o-dat	do-no	Do-no
d	dim	o-dim	do-im	O-di-na
d	dum	u-dum	da-la	A-do-lat

Dalada
Da-la-da . O-tam da-la-
dan o-la-di. do-ni-dan un .
dan non . Non

-Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

-Bugungi darsda sizga nima yangilik bo'ldi?

-Qaysi topshiriqni bajarishga qiyonaldingiz?

20-mavzu: [d] tovushi. Dd harfi yuzasidan amaliy topshiriqlar

Dars maqsadi:

- [d] tovushining talaffuzi va Dd harfining bosma shakli yuzasidan amaliy topshiriqlar bajaradilar;

- so'zlardan [d] tovushining o'rmini aniqlashni o'rganadilar;

- so'zni bo'g'inga bo'lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

Tayanch so'zlar: sarlavha, [d] tovushi ishtirokidagi so'zlardan tovushlar sonini aniqlash chizmasi.

Didaktik materiallar: ko'k va qizil rangli kichik kvadratlar, rasmi li kartochkalar , kesma harflar.

Darsning borishi:

I.Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

O'rtog' imni bilaman mashqi: O'qituvchi o'quvchilardan o'rtoqlari haqida bitta gap tuzib berishlarini so'raydi.

Bugun siz bilan "O'trog'imni bilaman" mashqini o'tkazamiz. O'z o'rtog'ingiz haqida bitta gap tuzing.

Asosiy qism (40 daqiqa)

1.Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)

O'qituvchi kesma harflar yordamida d harfi bilan boshlanadigan so'z hosil qilishni so'raydi.

Kesma harflaringiz yoramida o'rgangan harflarimiz bilan so'zlar tuzing. Tuzgan so'zlariningizni partadoshingizga o'qib bering.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

- Qanday so'zlar tuza oldingiz?
- Partadoshingiz qanday so'zlarni tuza oldi?
- Partadoshingiz tuzgan so'zlar orasidan qaysi birlari siz tuzgan so'zlar orasida yo'q?

2.Mavzuni mustahkamlash: (10 daqiqa)

O'qituvchi [d] tovushini so'zlar orasidan qanday aniqlashni tushuntiradi. Unli tovushlar to'siqqa uchramasligi, cho'ziq aytilishi va unli tovushlarni chizmada